

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida



Image not found or type unknown

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

Aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ko'makka muhtoj fuqarolarga va yolg'iz keksalarga pul yordami ko'rsatish ko'lamin kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 martdagи "2003 yilning 1 apreliдан boshlab uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha beriladigan imtiyozlar o'rниga kompensatsiya pul to'lovlarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3227-son Farmoniga muvofiq imtiyozli tofadagi shaxslar uchun uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qonunchilik asosida beriladigan imtiyozlar o'rниga oylik kompensatsiya pul to'lovleri (keyingi o'rnlarda – kompensatsiya to'lovi) joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilansinki, 2022 yil 1 martdan boshlab:

a) kompensatsiya to'lovi, uni olish huquqiga ega bo'lgan barcha imtiyozli tofadagi shaxslarga, ushbu shaxslarning pensiya (ijtimoiy nafaqa) olishi yoki olmasligi hamda mehnat faoliyatini olib borishi yoki olib bormasligidan **qat'i nazar to'lab boriladi**;

b) ijtimoiy nafaqa oluvchi **o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz shaxslarga kompensatsiya to'lovi** joriy etiladi.

Bunda ijtimoiy nafaqa oluvchi **o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz shaxslar** uchun har oylik kompensatsiya to'lovi – pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining **45 foizi miqdorida to'lanadi**;

v) **yoshi 100 ga to'igan va undan oshgan** ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar uchun har oyda - pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining **100 foizi** miqdorida **qo'shimcha to'lov** belgilanadi.

Bunda 100 yoshga to'igan va undan oshgan fuqarolar nafaqasiga har oyda to'lanadigan qo'shimcha to'lov pensiya va nafaqa tayinlangan tashkilot orqali **respublika byudjeti** va byudjetdan tashqari **Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan** moliyalashtiriladi.

3. Moliya vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ushbu Farmon **maqsadi, vazifalari va bundan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.**

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

5. Ushbu Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga hamda kompensatsiya va qo'shimcha to'lovlarning fuqarolarga pensiya va nafaqa to'lanadigan muddatlarda to'lab borilishini ta'minlashga mas'ul va shaxsiy javobgar etib moliya vaziri **T.A. Ishmetov** belgilansin.

6. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rribosari **J.A.Qo'chqorov** zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Sh.MIRZIYOEV

Toshkent shahri,

2022 yil 28 yanvar